


ALEKSANDR FAYNBERGNING HAYOTI VA IJODIY
FAOLIYATI

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna
O'zbekiston Davlat Jahon Tillari
Universiteti Ingiliz filologiyasi
fakulteti
2-bosqich talabasi.

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Ilmiy rahbar:Bannopova Z.X

Annotatsiya: Ushbu maqola rus tilida ijod qilgan bo'lsa-da, o'zbek xalqining chinakam faxri va farzandiga aylangan Aleksandr Arkadevich Faynberg hayot yo'li,o'lmas asarlari, she'riy to'plamlari,tarjimonlik va senariynavislik faoliyatini yoritish va shoir ijodiy yo'liga o'sib kelayotgan yosh avlodni qiziqtirish maqsadida yozilmoqda.

Kalit so'zlar: ,”Velosiped yo'lakchasi”,jurnalistika,she'riy to'plam,O'zbekiston xalq shoiri,senariylar,tarjima to'plamlari,yozuvchilar uyushmasi,o'zbekfilm,tojikfilm.

O'zbekiston xalq shoiri Aleksandr Arkadevich Faynberg 1939-yil 2-noyabrda Toshkent shahrida tavallud topgan.Uning bolalik chog'lari Jukoviskiy ko'chasida o'tgan.Shoir hali tug'ilmasi 1937-yil Sobiq ittifiqning har yerida tobora avj olayotgan Qatag'on olovi uning ot-onasimni ham chetlab o'tmagani tufayli ular Novosibirskdan Toshkent shahriga ko'chib keladilar.Asli gatchinalik bo'lgan ijodkorning otasi Arkadiy Lvovich Faynberg (1891-1971) texnologiya oliygohini bitirib, spirt zavodida bosh muhandis bo'lib ishlagan.Onasi Anastasiya Aleksandrovna 1904-yil tug'ilgan (vafot etgan sanasi ma'lum emas) va u ham spirt zavodida ishlagan.7 yillik mакtab ta'limini olgach Arkadiy Toshkent Topografiya texnikumiga o'qishga kirgan.U yerdagi tahsilni tamomlagach Tojikistonda harbiy xizmatni o'taydi.Keyin esa Toshkent universiteti(hozirgi Mirzo Ulugbek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti)da

o'qishni boshlagan. Shoir u yerda filologiya fakultetining sirtqi jurnalistika bo'limida o'qigan. 1961-yilda I.G. Kovalga uylangan.

Aleksandr Arkadevich Faynbergning ijodiy faoliya topografiya texnikumida o'qib yurgan kezlarida boshlangan. O'sha paytlarda geolog sifatida mamlakat bo'y lab sayohat qilar ekan, ajib tabiat manzaralariga oshiq bo'ladi. Shu davrda uning "Velposiped yo'lakchasi" nomli birinchi to'plami nashr etiladi. Bu asar kichik bo'lsada, she'riyatda yorqin bir yulduz paydo bo'lganligi haqida bong urardi.

Shoirning umumiy hisobda o'n beshta she'riy to'plami mavjud bo'lib, shundan ikkitasi uning o'limidan keyin nashr etilgan. Uning she'rlari "Smena", "Yoshlik", "Yangi dunyo", "Sharq yulduzi", "Yangi Volga" jurnallarida va AQSH, Kanada va Isroilning davvriy nashrlari chop etilgan. Shu bilan birga Faynberg 1965-1969-yillarda O'zbekiston

Yozuvchilar uyushmasining maslahatchisi sifatida faoliyati yuritgan va o'zing ketma-ket dunyo yuzini ko'rgan yorqin asarlari bilan she'riyatning zabardast vakillaridan biriga aylanadi. "Velotrik" (1965), "Etyud" (1967), "Bir lahza" (1969), "She'rlar" (1977), "Olis ko'prilar" (1978), "Osmon muhri" (1982), "Qisqa to'lqin" (1983), "Yoyma to'r" (1984), "dengiz" (1986), "Erkin sonetlar" (1990) kabi ajoyib asarlari yuqoridagi so'zlarimizning aniq dalilidir. U asarlarida tarixiy-ijtimoiy silsilalar asrida o'zining insoniy mohiyatini asrab qolgan, o'zgaga mehr-shafqat va madad qo'lini uzatishga tayyor, yer kurrasida sodir bo'layotgan noxush voqeа va hodisalardan iztirob chekayotgan lirik qahramonni tasvirlaydi.

Ijodkor tarjima sohasida ham salmoqli mehnat qilgan. O'zbek she'riyatini yaxshi bilganligi sababli Alisher Navoiy she'rlarining rus tilidagi tarjimasidan iborat 10 jildlik to'plami nashr etilishida faol ishtirok etadi. Qolaversa, uning benazir xizmatlari natijasida Moskvada Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni", Toshkentda esa "Oqqush galasi" to'plamihamda Abdulla oripov, Omon Matjon kabi ijodkorlar asarlari nashr etildi.

Faynberg ijodini senariynavislik sohasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Uning senariysi asosida suratga olingan "Mening akam", "Jazirama oftob tagida"

,”Qahratonda toblanganlar” hamda tojikfilm kinostudiyasida tasvirga olingan “Jinoyatchi va oqlovchilar” kabi kino durdonalari tomoshabinlar qalbidan chuqur joy egallagani va hali hanuz ular tomonidan sevib tomosha qilinib kelinayotgani ijodkorning naqadar mohir yozuvchi ekanligini ham ko’rsasatib beradi.

1999-yil “Paxtakor” futbol jamoasining a’zolati aviahalokatda halok bo’lganligining 20 yilligi munosabati bilan Faynbeg qalamiga mansub senariy asosida O’zbekfilm kinostudiyasi “Osmondagi stadion” filmini kino tasmalariga muhrlaydi va Faynbergning 1979-yil “Paxtakor” jamoasi sharafiga yozilgan qo’shig’i yangragan.

Bundan tashqari shoir bir necha yillar davomida O’zbekiston yosh yozuvchilar seminariga rahbarlik qilgan.U 1977- yilda suratga olingan “Issiq quyosh ostidagi uy” filmining senariy muallifi ham hisoblanadi.Serqirra ijodkor 7 ta badiiy film senariysi,o’n uchta animatsion film senariylar muallifi bo’lib,ularning hammasi muallifining nasr yo’nalishidagi ijodiga keng kitobxonlar ommasining qiziqishini hozirgacha orttirib bormoqda.U nafaqat she’riyatda.balki adabiyotning senariynavislik sohasida ham O’zbek ijodkorlariga o’rnak bo’ladigan bir ehtiromga loyid ijod yo’lini yaratdi desak ,aslo mubolag’a bo’lmaydi

Shoir o’z asarlarida tinchlik,millatlar aro hamjihatlik, mehr-shafqat kabi eng go’zal insoniy fazilatlarini yoritadi.U nafaqat rus adabiyoti rivojiga,balki o’zi rossiyalik bo’lsa-da Vatanim deya ardoqlagani, O’zbekiston badiiy adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo’shdi.Uning bu yo’ldagi xizmatlariga hurmat sifatida 1999-yil ijodkorga O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan Madaniyat xodimi,2004-yilda esa O’zbekiston Xalq shoiri unvoni berildi.2008-yil Rossiya Federatsiyasi prezidenti farmoni bilan O’zbekiston va Rossiya o’tasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashga qo’shgan hissasi uchun“Pushkin” medali berildi.Ijodkorning o’n uchta she’riy to’plami Toshkent,Moskva,Sank-Peterburgda chop etilgan.

Aleksandr Arkadevich Faynberg 2009-yil 14-oktabr sanasida 70 yoshida Toshkent shahrida olamdan o’tdi.Uning qabri Botiniskiy qabristonida Sergey Yeseninining qizi Tatyana Yesenina qabri yonida.Shoirni so’nggi yo’lga kuzatish

uchun yuzlab toshkentliklar, uning qarindoshlari , ijod ahlining hurmatga sazovor vakillari qatnashdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
2. <https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/Aleksandr-faynberg-1939-2009>
4. <https://reasearchedu.org/index.php/openscholar/article/view/4678>